YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA O‘RTA OSIYOLIK MUTAFAKKIRLARNING QARASHLARI

Karshiyev Botir Ergashboyevich
Samarqand viloyati Jomboy tuman 2-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor urinbosari

Annatatsiya: Jahon ilm-fanining oltin harflar boyitgan ulug‘ mutafakkir zotlarning ta’lim-tarbiya, ayniqsa yoshlarni jamiyatga moslashtirish, ular faolligini oshirishda o‘zlarining bebaho asarlari, hikmatlari va qarashlari orqali boyitgani bejiz emas albatta. Biz ushbu maqolamizda O‘rta Osiyolik allomalarning yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oida qarashlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib o‘z mualliflik fikrlarimiz va taklif tavsiyalarimizni keltirib o‘tdik.
Kalit so‘zlar: Jahon, tamaddun, ma’rifat, ijtimoiy faollik, bilim, ta’lim-tarbiya.
Аннотация:Недаром великие мыслители мировой науки обогатились золотыми буквами своими бесценными трудами, мудростью и прозорливостью в воспитании, особенно в приспособлении молодежи к обществу, повышении ее активности. В данной статье мы проанализировали возражения центральноазиатских ученых относительно воспитания молодежи с научно-теоретической точки зрения, а также представили наши авторские мнения и предложения.
Ключевые слова: Мир, цивилизация, просвещение, социальная активность, познание, образование.
Annotation: It is not for nothing that the great thinkers of world science have been enriched with golden letters by their invaluable works, wisdom and insight in education, especially in adapting young people to society, increasing their activity. In this article, we analyzed the objections of Central Asian scientists regarding the education of young people from a scientific and theoretical point of view, and also presented our author's opinions and proposals.
Key words: World, civilization, enlightenment, social activity, knowledge, education.

Jahondagi har bir xalq dunyo tamaddunining bebaho xazinasiga o‘z hissasini qo‘shgan. Bu borada O‘rta Osiyo xalqlarining hissasi alohidadir. «... qadimiy O‘zbekiston zamini ko‘p asrlar davomida fan va ma’rifat o‘chog‘i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lib kelgan, ilmu ma’rifatga intilib yashash esa xalqimiz mentalitetining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz butun dunyoda o‘zlarining matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya va tibbiyot sohalaridagi tengsiz kashfiyotlari bilan shuhrat qozonganlar». Darhaqiqat, Movarounnahrda vujudga kelgan ulkan davlat hududida hayot kechirgan xalqning madaniy-ma’naviy merosi insoniyat tarixida o‘zining beqiyos ahamiyatiga ega. Ushbu meros uzoq asrlar mobaynida shaxs ma’naviyatini shakllantirishda o‘ziga xos ozuqa bo‘lib kelmoqda.

Insoniyatning yetuklikka erishuvi hamda uning ijtimoiy faolligi masalasi barcha davrlarda ham madaniy-ma’rifiy, ma’naviy g‘oyalar, konsepsiyalarning asosini tashkil etgan. Jumladan, al-Hakim Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Abu Hafs Najmiddin Umar Ibn Muhammad Nasafiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Unsurul Maoliy Kaykovus, Zamaxshariylar juda ko‘p sohalarda xizmat qilganlar va salmoqli pedagogik fikrlarni olg‘a surganlar.

Abu Nasr Forobiy (873-950)ning fikricha, inson mohiyati, uning tabiati bilan belgilanadi va u ijtimoiydir. «Har bir inson, deb yozadi alloma, - o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muxtoj

https://wordlyknowledge.uz

bo‘ladi, bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Shu sababli, yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi».

Abu Nasr Forobiy ta’lim va tarbiyaga ta’rif berib, ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya esa nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq me’yorlarini va amaliy malakalarini o‘rgatishdir, degan. Xulq-atvorga so‘z bilan emas, balki amalda erishish mumkinligini tushuntirgan. Jismoniy yetuklik, intellektual kamolot, yuksak axloqiy, estetik fazilatlar har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol shaxsning asosiy tavsiflaridandir. Inson imkoniyatlarini baholashda Forobiy uning tashqi hamda ichki (ruhiy, ma’naviy) go‘zalligini diniy tasavvurlar bilan bog‘lamaydi. Olimning har tomonlama barkamol, yetuk shaxs haqidagi qarashlari insonning haqiqiy ma’nodagi ijtimoiy faolligiga olib keladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) shaxs tomonidan tashkil etilgan salbiy xatti-harakatlarning sababini ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxs ruhiyatidagi intilish va qiziqish, muhim ahamiyatga ega degan g‘oyalarni ilgari suradi. Alloma ijtimoiy jamiyat ravnaqini ma’rifat rivojiga bog‘liq holda ko‘radi. Bilim olish axloqiy tarbiyaning tashkil etilishi bilan bog‘liq. Zero bilimning samarasi bo‘lgan aql hamda axloqiy fazilatlarga tayangan holda shaxs atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, deya hisoblagan holda Abu Rayhon Beruniy yaxshi xislatlar sirasiga to‘g‘rilik, odillik, kamtarlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Mutafakkirning ta’biricha, yoshlarga kasb-hunarni o‘rgatishda shaxsiy namuna metodidan foydalanish kutilgan natijalarni beradi.

Insonlarni barkamollikka, faollikka chorlovchi fikrlarni Abu Ali ibn Sino (980-1037) qarashlarida ham ko‘plab uchratish mumkin. Abu Ali ibn Sino ilm narsalarning aql yordami bilan o‘rganilishidan iboratligini ta’kidlab, shunday yozgan: «Bilim deb, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shunday narsaki, inson aqli uni xatosiz va yo‘ldan toymasdan turib, unga erishishi kerak bo‘ladi. Bordi-yu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsa-yu, isbotlar chinakam bo‘lsa, u holda bunday hikmatga donishmandlik deyiladi».

Mahmud Qoshg‘ariy (XI asr.), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Kaykovus (XI asr), Umar Xayyom, Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad **az-Zamaxshariy** (1075–1144) asarlarida shaxsning ijtimoiylashuvi negizida harakat, turlicha faoliyatlarni tashkil etish (ularning orasida ilm olish, mehnat qilish hamda jismoniy faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyatga egaligi) o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlab o‘tiladi.

Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida insonning yoshlarligidan ijtimoiy tarbiyaga, faollikka jalb etilishi haqida quyidagi baytlarni bitgan:

«Uquli-idrokli bo‘lsa qay odam,
Kishi deb atagin, maqtagin har dam.
Yovuzni ezgu tut, kichikni ulug‘,
Uquv-idrok, bilim bo‘lsa unda jam».

deyish bilan «aql yoshlarda emas – boshda» naqliga amal qilib, agar unda uquv-idrok, bilim bo‘lsa, kichikni ulug‘ tutib, boshga ko‘tarishni maslahat beradi. Har qanday jamiyatning boyligi bo‘lgan uquvli, bilimli, tadbirkor odamlarni yoshlarligidan qadrlab, ularda faollik ko‘nikmalarini tarbiyalashga undaydi.

Unsurul Maoliy Kaykovus (XI asr) o‘g‘li Gilonshohga atab «Qobusnoma» asarini yozgan. Asar pand-nasihat tarzida yozilgan bo‘lib, unda yoshlar tarbiyasida juvonmardlik talablaridan eng muhimi axloq tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Kaykovus yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishni targ‘ib qiladi, yoshlarni doimo to‘g‘rilikka,

https://wordlyknowledge.uz

yaxshilikka, adolatlilikka, faollikka undaydi. Asarda asosan o‘zgalarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lishlik uqtiriladi.

Tasavvuf namoyondalarining ta’lim-tarbiyaga oid ilg‘or qarashlarini o‘z asarlarida mujassamlashtirgan buyuk mutafakkirlardan biri Alisher Navoiydir (Navoiy taxalluslari; asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) (1441.9.2. –Hirot –1501.3.1,). Uning asarlarida axloqiy tarbiya, bilim olishga rag‘batlantirish masalasi ustuvor o‘rin egallagan. Alisher Navoiy o‘z asarlarida insonni nihoyatda ulug‘laydi, uni yashashga, baxtli-saodatli bo‘lishga, dunyoni obod qilishga, o‘zidan yaxshi iz qoldirishga ya’ni ijtimoiy faol bo‘lishga chaqiradi.

Alisher Navoiy insonga yuksak baho beradi. Insonning xulq-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, madaniy-ma’naviy qiyofasi, uning ta’biricha, ijtimoiy muhitga bog‘liq. Inson ijtimoiy muhit mahsuli sifatida shakllanib, kamolotga erisha boradi. Boshqacha aytganda, insonni ijtimoiy mavjudotga aylantiradigan hal qiluvchi omil jamiyat, tashqi muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardir.

Alisher Navoiy asarlarining qahramonlari ham hamisha faol xatti-harakatdagi shaxslar sifatida tasvirlanadi. Jumladan, Farhoddagi faollik, bunyodkorlik sifatlari ko‘p asrlar davomida yoshlarni faollikka, bunyodkorlikka undab kelmoqda. Alisher Navoiy asarlaridagi qahramonlar o‘z shaxsiy manfaatlaridan xalq manfaatini ustun qo‘ya olganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda o‘quchi-yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda o‘qituvchi-tarbiyachilar ajdodlarimiz merosidan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda unumli foydalanishsa, barkamol avlodni tarbiyalash samarali kechadi hamda ular jamiyatning ijtimoiy faol shaxslari bo‘lib yetishadilar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O‘zbekiston, 2012. – 184 b. B.10.
2. Tojiboeva X.M., O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi: p.f.b.f.d. (PhD), diss. ... Toshkent, 2018. B. 24.
3. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 255 b. B.176.
4. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 446 b.

Qobusnoma / Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 208 b.

https://wordlyknowledge.uz